

BOLALAR BIZNING ERTAMIZ POYDEVORI

Jo'rayev Sarvar Najmiddin o'g'li
Shahrisabz davlat pedagogika Instituti
Pedagogika fakulteti
Boshlang'ch ta'lim yo'nalishi talabasi
Tel: +998997718540



ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada. Yosh bolalarga bo'lgan e'tiborning yuksakligi hamda 3-dekabr Xalqaro nogiron kuni e'lon qilinganligi to'g'risida va 1-iyul Xalqaro bolalar kuni sifatida nishonlanishi, davlatimiz rahbari bolalarning o'z huquqlari va ularga bo'lgan e'tibor va keng ko'lamli shart sharoitlar haqida fikr va mulohazalar yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlari. Vatan, oila, inson, bilimli, barkamol, ta'lim-tarbiya, konstitutsiya

АННОТАЦИЯ

В этой статье. Высокий уровень внимания к детям раннего возраста и объявление 3 декабря Международным днем инвалидов и 1 июля Международным днем защиты детей, руководитель взглядов и мнений нашей страны о правах детей и внимании к ним и широкомасштабные условия были выделены.

Ключевые слова. Родина, семья, человек, образованный, зрелый, образование, конституция

ANNOTATION

In this article. The high level of attention to young children and the declaration of December 3 as International Day of Persons with Disabilities and July 1 as

International Children's Day, the leader of our country's views and opinions on children's rights and attention to them and large-scale conditions were highlighted.

Keywords. Homeland, family, person, educated, mature, education, constitution

Mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni bilimli, dono, zukko har tomonlama yetuk barkamol shaxs qilib tarbiyalashimiz uchun hozirgi kunda barcha bolalarga shart sharoitlar e'tibor qaratilmoqda. Buning zamirida bizning ertamiz poydevorlarni yosh beg'ubor ko'zlarida to'la quvonch qalqib chiqan bilimli vatanparvar jasur bolajonlar vatanimiz rivojlanishining asosiy dovomchilari hisoblanadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lishlari shart" degan g'oyasi xalqimiz qalbida o'chmas iz qoldirgan. Chunki bu g'oya tarkibida olam olam ma'no yotibdi. Har bir inson pushti kamaridan bino bo'lgan o'g'il-qizlarini oq yuvib oq tarab voyaga yetkazish ularni hech narsadan zo'riqtirmay o'stirish o'zi o'qimagan bo'lsa ham lekin farzandlarini bilimli, dono albatta baxtli ko'rishni istaydi. chunki o'zi hayoti davomida qiyinchiliklar tufayli oyoqqa turgani uchun farzandlari qiynalmay yaxshi yashashi uchun hozirdan farzandlarining kelajagini o'ylab ularning o'qishini ko'cha-ko'yda yurush turushni nazoratga olayotgan ota-onalarimiz soni ko'payib borayotganligi uchun quvonamiz nega deysizmi ertamiz poydevori yurtimizning davomchisi bo'lgan o'g'il-qizlarimizning qo'lida vatanimizni yuksaltirish ham uni jaholatga yo'latmoq ham bu kelajakdagi yoshlarimizning qo'lidadir. Afsuski ayrim ota-onalar farzandlarini nazorat qilishga ularni tarbiyasi bilan shug'ullanish uchun vaqtni ajrata olmaydi. Ayrim ota-onalar kuni bilan ishda yurganligi sababli farzandlarining nimaga muhtoj ekanligi yoki ota-ona yetarlicha mehr ko'rsata olyapdimi ularning ta'lim tarbiya olishlariga etibor qarata olyapdimi degan savollar hayotimiz davomida uchrab turadi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng 1992-yil 14-oktyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 47/3-sonli qaroriga asosan 3-dekabr Xalqaro nogironlar kuni sifatida e'lon qilindi va tashkilotga a'zo davlatlarni har yili maxsus kun sharafiga bag'ishlangan tadbirlari o'tkazilib kelinmoqda. Ushbu kunda yurtimizda nogironligi bo'lgan shaxslarni holidan xabar olishish ularga davlatimiz tomonidan ijtimoiy himoya qilinishi ularga keng imkoniyatlar eshigini ochish kabi chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Masalan birgina narsaga qaraydigan bo'lsak yurtimizda Oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan nogironligi bo'lgan shaxslarning shartnoma to'lovlarini to'lab berilishi, o'tgan o'quv yilidan boshlab qonunda belgilangan tartibda ularni oliy o'quv yurtlariga grant asosida qabul qilinishi sohada amalga oshirilayotgan ishlarning birgina isboti. desak adashmagan bo'lamiz. Ularga yurtimiz prezidenti naqadar. keng ko'lamli imkoniyatlar eshigini ochilishining asosiy sababi shundan iboratki vatanimiz istiqboli porloq kelajagi yo'lida sa'y-harakatlarning barchasi ertamiz poydevorining ta'lim-tarbiya olishiga vatanimizni yanada yuksaltirishga

qaratilgan e'tibordir. Bolalar kuni tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak 1949-yilda Parijda ayollarning Xalqaro demokratik federatsiyasi kongressi bo'lib o'tdi. Bu kongressda bolalarning bardamligi va baxt-saodatining kafolati bo'lgan mustahkam tinchlikni ta'minlash uchun doimiy kurash haqidagi shior yangradi. Dunyoning ko'plab davlatlarida. 1950-yildan buyon butun dunyoda nishonlanib kelinadi. 1-iyunda Bolalar kunini nishonlash taklifi 1925-yili Jeneva, Shveysariyadagi konferensiyada o'rtaga tashlangandi. Nega aynan shu sana tanlangani haqida ikki faraz bor: birinchisiga ko'ra, o'sha yilgi xitoylik yetim bolalar uchun uyushtirilgan Duanvu festivali 1-iyunga to'g'ri kelib qolgan; boshqa faraz esa soddaroq — konferensiya shu kuni o'tayotganligi. 1989-yilda BMT Bosh Assambleyasi bolalar huquqlari to'g'risida Konventsiya qabul qildi. Unda butun dunyo mamlakatlari uchun bolalar huquqlarini himoya qilishni ta'minlashni joriy qilish to'g'risida yozilgan. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida 72 yildan buyon yozning ilk kuni 1-iyun – Xalqaro bolalar kuni sifatida nishonlanadi. Dam olish kuni bo'lmasa ham bu kun haqiqiy bolalar bayrami bayramona kayfiyat bolalar ko'zlarida yaqqol sezilib turardi. Yurtimizda har yili 1-iyun kuni ommaviy ko'ngil ochar tadbirlar, turli xil musobaqalar marofonlar bo'lib o'tadi. Har bir ko'chalarda bayram shukuhi jajji bolalarning shodlik to'la ko'zidan sezishimiz mumkin. Bolalarni ko'rganimizda ularning sof- ko'ngil ekanligi beg'uborligi sodda samimiylikini ko'rishimiz bilan bolalik davrimiz esta qolarli xotiralarimizni yodga olamiz. Bolalar uchun o'zi bir yilda bir martada nishonlanadigan bayramlarga qaraydigan bo'lsak ularning bittasi Yangi yil bayrami bo'lsa ikkinchisi esa Xalqaro bolalar kunidir. Ushbu bayramlarni bolajonlarimiz intizorlik bilan kutadi. Boshqa bayramlar ham borku degan savollar tug'iladi ayrimlarda lekin o'sha bayramlardagidek quvonch, shodlik bayram ona kayfiyat bolajonlarning ko'zidan porlam turadi o'sha bayramga bo'lgan muhabbat yanada ustun ekanligidan boshqa bayramlardan ajralib turadi.

O'zbekiston respublikasining konstitutsiyasining 50-moddasida

Har kim ta'lim olish huquqiga ega.

Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi.

Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart- sharoitlar yaratadi.

Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir.

Ushbu moddaga keltirilgan talablar bo'ysinish qonunga hilof ish yurutmasligimiz kerak. Konstitutsiyamizda keltirilgan imkoniyatlardan oqilona foydalanish va har bir inson huquqlari burchlarini yaxshi bilishlari zarur. Shulardan bittasi har kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat umum ta'lim maktablari har bir bola bepul ta'lim olish huquqiga ega. Ayrim insonlar farzandlariga nazoratsizligi

tufayli ularni maktabga yoki boshqa litsey kasb-hunar kollejlariga joylashtirgandan so'ng ularning ta'lim -tarbiyasiga e'tibor qaratmay qo'yadi. Keyin ko'ngilsiz voqealarga duch kelamiz hayotimiz dovomida. Hech bir Ota-ona farzandini o'g'ri, giyohmand, qasoskor, hudbin, tanbal kabi yomon yo'larga kirishini xohlamaydi. Aksincha har tomonlama yetuk barkamol shaxs bo'lishi. Kelajakda ota-onasiga munosib farzand o'z kasbni fidokorona bajarishni istaydi. Buning uchun har bir o'sib ulg'ayib kelayotgan ertamiz poydevorlarni ota-onasi o'z farzandiga befarq bo'lmasligi lozim. Ularning bo'sh vaqtni mazmunli foydalanirish va qiziqishlari qobiliyatiga qarab to'g'ri yo'lga boshlashi kerak. Har bir bola yetuk barkamol shaxs bo'lib tarbiyalanmog'i uchun oilaning o'rni katta va oiladagi muhit bolaning ongida muhrlanib qoladi u gohida yaxshi bo'lsa ham yomon bo'lsa ham shuning uchun oiladagi muhit sog'lom bo'lmog'i lozim. Shuning uchun komil inson tarbiyalamoq uchun ta'lim tarbiyani uzviy bog'liq holda olib bormoq zarur. Zero bolajonlarimiz bizning kelajagimiz avlodlari yani ertamiz poydevoridir

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. "Bola huquqlari to'g'risida" gi konvensiya.